



# **HISTORICAL REALITIES AND PHILOSOPHICAL IDEALS: DIALOGUES ACROSS DISCIPLINES**

**INTERNATIONAL SCIENTIFIC-PRACTICAL  
CONFERENCE**

**TASHKENT, SEPTEMBER  
20, 2025**

**MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE  
AND INNOVATION OF REPUBLIC OF UZBEKISTAN  
TASHKENT STATE UNIVERSITY  
OF ORIENTAL STUDIES**

**RESEARCH CENTER FOR THE STUDY OF EASTERN  
CULTURE AND HERITAGE**

**HISTORICAL REALITIES  
AND PHILOSOPHICAL IDEALS: DIALOGUES ACROSS  
DISCIPLINES**

**INTERNATIONAL SCIENTIFIC-PRACTICAL  
CONFERENCE**

**Tashkent, September 20, 2025**

International Scientific-Practical Conference “Historical realities and philosophical ideals: dialogues across disciplines”[Text]/ – Tashkent: Tashkent State University of Oriental Studies, 2025. -698 p.

This collection contains the materials of the international scientific-practical conference “Historical Realities and Philosophical Ideals: Dialogues Across Disciplines.” The volume includes articles dedicated to the theoretical and practical issues of interdisciplinary approaches in historical research, the history of the interconnected development of Eastern regions, current problems of historical source studies and historiography, the significance of interdisciplinary studies in exploring tangible and intangible cultural heritage, as well as the main directions of Eastern philosophy and culture. The authors of the articles are leading experts in their respective fields and young researchers.

***Chief editor:***

Mirzohid Askarov

***Editorial board:***

B.Zokirov, Sh.Yodgorov, M.Khubbaliyeva, M.Turdikhujayeva,  
M.Nabiyev, R.Isakov, G.Abduvakhobova, Sh.Abdurasulov, G.Jumayev

The conference materials were reviewed by the Academic Council of the Faculty of “Eastern Civilization and Philosophy” at Tashkent State University of Oriental Studies and recommended for publication (No. 3, dated October 23, 2025).

**XX ASR BOSHLARI BUXORO AMIRLIGINING TASHQI SAVDO  
MUNOSABATLARI TARIXINI O'RGANISHDA FANLARARO  
YONDOSHUVLARNING AHAMIYATI**

**Raxima Alimova**

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti dotsenti, tarix fanlari  
nomzodi*

**Kalit so'zlar:** *Vassallik, 1894 yil, bojxona tizimi, D.N.Logofet, .F.Gubarevich-Radobilskiy, savdo aloqalari, ingliz-hind tovarlari.* **Annotatsiya:** *Mazkur maqolada XX asr boshlarida Buxoro amirligining tashqi savdo munosabatlari tarixi ko'rib chiqiladi. Unda o'z davrining ko'zga ko'ringan mutaxassislarining, O'rta Osiyoda uzoq yillar faoliyat olib borgan shaxslarning asarlarida qayd etilgan Buxoro amirligining qo'shni davlatlar bilan siyosiy, iqtisodiy-savdo munosabatlariga oid ma'lumotlardan unumli foydalanilgan.*

---

**THE SIGNIFICANCE OF INTERDISCIPLINARY APPROACHES IN  
STUDYING THE HISTORY OF FOREIGN TRADE RELATIONS OF THE  
BUKHARA EMIRATE IN THE EARLY 20TH CENTURY**

**Rakhima Alimova**

*Associate Professor at Tashkent State University of Oriental Studies,  
Candidate of historical sciences*

**Key words:** *Protectorate, 1894, customs system, D.N. Logofet, A.F. Gubarevich-Radobilsky, trade relations, anglo-indian goods.* **Abstract:** *This article examines the history of foreign trade relations of the Bukhara Emirate at the beginning of the 20th century. In it, information about the political, economic, and trade relations of the Bukhara Emirate with neighboring states, recorded in the works of prominent specialists of their time and individuals who worked in Central Asia for many years, was effectively used.*

---

XX asr boshlari Buxoro amirligining qo'shni davlatlar bilan savdo munosabatlarida katta o'zgarishlar sodir bo'lgan davr hisoblanadi. Bir tomondan, XIX asr 60-yillari oxirlaridan Buxoro amirligining Rossiyaga qaram davlatga aylanishi va siyosiy mustaqilligini yo'qotishi bo'lsa, ikkinchi tomondan, 1894 yilda amirlikning Rossiya chegara chizig'iga kiritilishi natijasida chegara bojxona tizimlarining joriy qilinishi oqibatida amirlik xazinasiga kelib tushadigan bojxona to'lovlarining Rossiya ixtiyoriga o'tkazilishi bilan kechgan. Buxoro amirligi tashqi savdosida Rossiya asosiy davlatga aylangan. Amirlikning nafaqat qo'shni sharq davlatlari va hatto xorij davlatlari bilan savdosini ham

Rossiya imperiyasi qonun-qoidalariga bo'ysindirishga harakat qilingan. Amirlik rus sanoatchilari uchun xom ashyo bozoriga aylanib qola boshlagan. Rossiyada ishlab chiqarilgan tovarlar Buxoro orqali qo'shni Afg'oniston, Hindiston va Erongaeksport qilina boshlagan. Buxoro tovarlari eksportida rus tovarlarining salmog'i ortib borgan. Bu jarayonlar haqida XX asr boshlari tadqiqotlarida qimmatli ma'lumotlar mavjud. Mazkur masalani tadqiq qilishda bevosita shu masalaga oydinlik kiritishga xizmat qiladigan fanlar muhim o'rin tutadi. Mavzu rus tadqiqotlarida savdo-iqtisodiy aloqalar kontesktida ko'rib chiqilishi nazarda tutilganligi uchun tarixiy bilimlar qatorida siyosatshunoslik, matematika, iqtisodiyot fanlari bilan bog'liq holatda tadqiqot olib borilsa, ko'zlangan samaraga to'liq erishish mumkin.

Bu davrda rus nashriyotida Buxoro amirligi tashqi savdo aloqalariga oid statistik ma'lumotlarga boy asarlar paydo bo'la boshlagan. Bular qatorida O'rta Osiyoda uzoq yillar mobaynida faoliyat olib borgan D.N.Logofet va Gubarevich-Radobilskiy asarlari, Timofeich, S.Ivanovich va boshqalarning maqolalarini e'tirof qilish mumkin.

General-mayor, harbiy publitsist va yozuvchi, sharqshunos olim Dmítriy Nikoláevich Logofét (1865–1922) O'rta Osiyoda Chegara qo'shinlarining maxsus korpusida bir-necha yillar davomida xizmat qilgan. Shu bilan birgalikda, u XIX asr oxirlarida Zakaspiy viloyatini o'rgangan yevropalik tadqiqotchilardan biri bo'lib, 1897 yilda tashkil topgan Rus Geografik Jamiyatining Turkiston bo'limi faoliyatida faol ishtirok etgan. D.N.Logofet O'rta Osiyo xalqlari tarixi, madaniyati va turmush tarzining bilimdoni bo'lib, o'zining sayohat kundaliklari asosida O'rta Osiyo haqida bir qator kitoblar yozgan. Uning Sankt-Peterburg Arxeologiya institutini va Rossiya Tashqi Ishlar Vazirligi Osiyo departamenti qoshidagi sharq tillari kursini tamomlaganligi, kelajakda unga O'rta Osiyoda xizmat vazifasini o'tash davrida qo'l kelgan <sup>1</sup>. 1893-yilda tashkil topgan Chegara qo'shinlari Maxsus korpusida faoliyat yuritib, tajriba orttirgan D.N.Logofet 1899 yilda O'rta Osiyoga safarga jo'natiladi va u yerda Chegara qo'shinlari Maxsus korpusi 7-okrugi boshqarmasiga katta ad'yutant lavozimiga tayinlanadi hamda 1901 yilda chegara bo'ylab safarga chiqadi <sup>2</sup>. O'n yillar mobaynida O'rta Osiyodagi xizmat safari doirasida Buxoro amirligi

<sup>1</sup> Калининченко А.Л. Государственный деятель с широким и верным взглядом на русские интересы // Военно-исторический журнал. № 9. 2021. – С. 105.

<sup>2</sup> Калининченко А.Л. Государственный деятель с широким и верным взглядом на русские интересы // Военно-исторический журнал. № 9. 2021. – С. 108.

tarixi bo'yicha ko'plab ma'lumotlarni to'plashga va keyinchalik asarlar nashr qilishga muvassar bo'ldi<sup>1</sup>.

XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlari Buxoro iqtisodiy hayotining taniqli tadqiqotchisi, mashhur iqtisodchi A.F.Gubarevich-Radobilskiy (1862-1929) rus tarixshunosligida 1905-yilda nashr qilingan asari bilan ma'lum bo'ldi. Sobiq ofitser, Turkiston bojxona okru boshlig'i Buxoro xonligi hududida uzoq yillar faoliyati unga mamlakat ahvolini chuqur o'rganishga, XX asr boshlari Buxoro hayotining turli qirralarini, xususan uning davlatlar bilan tashqi iqtisodiy-savdo aloqalarini o'rganishga imkon berdi<sup>2</sup>.

D.N.Logofet va A.F.Gubarevich-Radobilskiylar bir davrda yashagan va har ikkisi ham O'rta Osiyoda uzoq yillar ishlagan, Buxoro amirligining siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotini o'z ko'zlari bilan kuzatgan tadqiqotchilar edi. D.N.Logofet Chegara qo'shinlari maxsus korpusida ishlaganligi tufayli chegara bojxonalarini faoliyatini yaxshi bilgan, undan farqli o'laroq A.F.Gubarevich-Radobilskiy iqtisodchi, bojxona okrugi boshlig'i sifatida chegara qayd daftarlari ma'lumotlari, ya'ni olib o'tilgan barcha tovarlar turlari, narxlari, soliqlar, savdo aylanmalari qayd etilgan hujjatlardagi statistik ma'lumotlardan bevosita foydalanish huquqiga ega bo'lgan. Shuning uchun ularning asarlarida keltirilgan iqtisodiy ko'rsatkichlar savdo aloqalari haqida to'liq tasavvur qilishga yordam beradi.

D.N.Logofet "Huquqsizlik mamlakati. Buxoro xonligi va uning hozirgi ahvoli"<sup>3</sup> asarida Buxoro xonligining tarixi, ma'muriy, siyosiy va harbiy tuzilishi, mahalliy qonunlar va urf-odatlar, e'tiqodlar va xalq og'ziaki ijodi haqida hikoya qiladi; O'rta Osiyo bosib olinib, rus ma'muriyati o'rnatilgandan keyin yuz bergan o'zgarishlarni tasvirlaydi. Buxoro iqtisodiyotining Rossiya uchun daromad keltirishi mumkin bo'lgan muhim tarmoqlari qatorida, Buxoroning qo'shni davlatlar bilan tashqi savdo aloqalari muhim o'rin egallashini to'g'ri anglab, Buxoro hayotida Afg'oniston bilan savdo muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlagan. U 1894-yilda amirlikning Rossiya bojxona chegaralariga kiritilganligini ma'qullab, Buxoro bojxonasining mustaqilligini saqlab

<sup>1</sup>Логофет Д.Н. Страна безправия. Бухарское ханство и его современное состояние. – СПб., 1909. – 239 с.; О'sha muallif. Бухарское ханство под русским протекторатом. Т. I-II. Т. I. – СПб., 1911. – 340 с.; Т. II. – СПб., – 357 с.; О'sha muallif. На границах Средней Азии. Путевые очерки в 3-х книгах. Кн.: I. – СПб., Персидская граница. – СПб., 1909.– 208 с.; Кн. II, Русско-Афганская граница. – СПб., 1909. – 208 с.; Кн.: III. – СПб., 1909. Бухарско-афганская граница. – СПб., 1909.– 208 с.; О'sha muallif. В забытой стране: Путевые очерки по Средней Азии. – М., 1912; О'sha muallif. В горах и равнинах Бухары (Очерки Средней Азии) – СПб., 1913; О'sha muallif. Завоевание Средней Азии // История русской армии и флота. – М., 1913.

<sup>2</sup> Арапов Д.Ю. Бухарское ханство в русской востоковедческой историографии. – М.: Изд-во МГУ, 1981. – С. 64.

<sup>3</sup> Логофет Д.Н. Страна безправия. Бухарское ханство и его современное состояние. – СПб., 1909.

qolish Rossiyasi imperiyasining savdo manfaatlari uchun foydali bo'lmaganligi uchun amirlikning Afg'oniston chegarasidagi Buxoro bojxona xizmatini tugatishni talab qilgan va boj yig'imi monopoliyasi Rossiya bojxonachilari qo'lida qolishi kerak, deb hisoblagan. Demak, D.N.Logofetning jon kuydirib Buxoro bojxona xizmatini tugatishni talab qilib chiqishi, hali ham amirlik Rossiya bojxona tizimiga kiritilganligidan qat'iy nazar amirlikning bojxona xizmati aslida faoliyat olib borayotganligidan dalolat beradi.

A.F.Gubarevich-Radobilskiyning "Buxoro va Tunisning iqtisodiy ocherki" asarida Buxoro uchun uning osiyolik qo'shnilari bilan savdo-sotiqning muhimligi xususida to'xtalib, 1894-yilda bojxona nizomi joriy etilgandan so'ng Buxoro tashqi savdosi nazorati ham Rossiya ixtiyoriga o'tganidan mamnunligini qayd etgan, ammo D.N.Logofetdan farqli o'laroq, u Buxoro bojxona tizimi hali ham faoliyat yuritayotganligi bo'yicha ma'lumot bermagan<sup>1</sup>.

D.N.Logofet Buxoro amirligidagi siyosiy vaziyatni chuqur tahlil qilib, amirlikni Turkiston general-gubernatorligi tarkibiga tezroq kiritish g'oyasini "Buxoro xonligi Rossiya protektorati ostida" asarida ilgari surgan<sup>2</sup>. U 1894-yildan keyin Buxoro bozorlarida rus tovarlari uchun hind eksporti tomonidan raqobat sezilarli darajada kamaygan bo'lsa-da, eng ishonchli chora Buxoroning ozgina siyosiy mustaqilligini butunlay yo'q qilish ekanligini ta'kidladi. D.N.Logofet o'zining mazkur kitobida Buxorodan Rossiya va Afg'onistonga olib kelingan va olib ketilgan mollar miqdori haqida ma'lumotlar keltirgan. U Buxoroning Afg'oniston bilan savdosiga alohida e'tibor qaratdi. Muallifning ma'lumotlariga ko'ra, Buxorodan Afg'onistonga rus mollari ayniqsa ko'p jo'natilgan. Ulardan asosiylari: yupqa movut, yupqa mato, kolenkor, ipak matolar, oltin va kumush golunlar, oltin va kumush iplar, kanitel, temir va mis simlar, rus charmlari, qog'oz, chinni idishlar, shisha idishlar, pichoq mahsulotlari, kalla qand, bronza, simob, koshenil, choy, asal, oq va sariq mum, konfet, lampa, baxmal, chit, qog'oz va ipak iplar, cho'yan, po'lat, qalay plitalari, mis plitalari, gugurt, kerosin, shamlar, parfyumeriya va sovunlar<sup>3</sup>.

Rus tovarlari qaysi bojxonalardan ko'p miqdorda olib chiqilsa, shu bojxona faoliyati yaxshi yo'lga qo'yilgan deb hisoblanib, ularga Moliya Vazirligining mukofotlari joriy qilingan. Aynan, bu chora Rossiyadan Afg'oniston davlatiga manufaktura, kerosin, shakar va gugurt olib

<sup>1</sup> Губаревич-Радобильский А.Ф. Экономический очерк Бухары и Туниса. Опыт сравнительного исследования двух систем протектората. – СПб., 1905.

<sup>2</sup> Логофет Д.Н. Бухарское ханство под русским протекторатом. Т. I-II. – СПб, 1911.

<sup>3</sup> Логофет Д.Н. Бухарское ханство под русским протекторатом. – СПб. 1911.

chiqishni ko'paytirishga sezilarli hissa qo'shganini ta'kidladi, shu bilan birga, rus mahsulotlari Afg'onistonda ingliz-hind tovarlari bilan muvaffaqiyatli raqobatlashdi, deb hisoblangan<sup>1</sup>. Biroq D.N.Logofetning fikricha, Buxoro-Afg'oniston chegarasida boj undirishning ikki tomonlama tizimi (Rossiya va Buxoro bojxona xizmatlari) saqlanib qolar ekan, bu mukofot tizimi o'z imkoniyatlarini to'liq ochib bera olmas edi<sup>2</sup>.

Buxoro amirligining tashqi savdo aloqalarini statistik ma'lumotlarsiz tasavvur qilish mushkul. D.N.Logofet, aynan savdo-sotiq masalalarida statistik ma'lumotlardan unumli foydalangan. U Buxoroning qo'shnilari bilan savdo aloqalari rivojlanishini ta'riflar ekan, Rossiyani birinchi o'ringa qo'yadi, uning savdosi yiliga taxminan 20 million rublga teng bo'lgan, Afg'oniston bilan 2,5 million rubl, Hindiston bilan 500 ming rubl va Eron bilan 200 ming rubllik savdo qilgan. Uning hisob-kitoblariga ko'ra, Buxoroga Rossiyadan yiliga 17 mln. rubllik, Afg'onistondan 3500 mln. rubllik, Hindistondan 800 ming rubllik, Erondan yiliga 200 ming rubllik tovarlar olib kelingan<sup>3</sup>.

A.F.Gubarevich-Radobilskiy amirlikning Rossiyaga vassal qaramligi o'rnatilgandan so'ng Buxoro tashqi savdosiga ta'sir ko'rsatgan eng muhim omillar natijasida 1894-yildan keyin Buxoroda hind choyi savdosi sezilarli darajada pasaygan, xitoy choyini olib kirish keskin oshgan, agar hind choyi hali ham olib kelinayotgan bo'lsa, u hind savdogarlari tomonidan emas, balki asosan rus savdo firmalari vakillari tomonidan olib kelingan, deb ta'kidlagan<sup>4</sup>. A.F.Gubarevich-Radobilskiy "Choy va choy monopoliyasi" asarida choy Buxoroga Hindistondan yuborilganligini qayd etgan. Uning ma'lumotlariga ko'ra, 1888-yildan Kaspiyorti temir yo'li bo'ylab harakatning ochilishi bilan choy Buxoroga Eron orqali yuborilgan va bu yo'l bilan choy yetkazib berish Afg'oniston orqali yetkazib berishdan 5 rubl (bir pud uchun 8 rubl) arzonroq tushgan. XIX asrning 80-yillarida choy savdosi faqat Peshovar savdogarlari qo'lida edi. A.F.Gubarevich-Radobilskiyning ma'lumotlariga ko'ra, o'sha paytda yiliga 100 000 pudgacha choy olib kelingan, shundan 70 000 pudi Eron orqali olib kelingan va 33 000 pudga yaqini Afg'oniston orqali olib o'tilgan. Xonlik rus bojxonasiga qo'shilgach, choyni Shanxaydan Botumgacha, temir yo'llar va Kaspiy dengizi orqali

<sup>1</sup> Логофет Д.Н. Страна безправия. – СПб., 1909. – С. 129, 138.

<sup>2</sup> Логофет Д.Н. Страна безправия. – СПб., 1909. – С. 132.

<sup>3</sup> Логофет Д.Н. Бухарское ханство под русским протекторатом. – СПб. 1911. – Т. I. – С. 285

<sup>4</sup> Расуль-Заде П.Н. Из истории среднеазиатско-индийских связей во второй половине XIX – начала XX века. – Ташкент. «Фан», 1968. – С. 107.

Buxorogacha olib kelish bir pud uchun 5 rubldan oshmas, Eron orqali olib kelishga qaraganda 3 rubl arzonga tushar edi<sup>1</sup>.

A.F.Gubarevich-Radobilskiy Buxoro va Afg'oniston o'rtasidagi tovar ayirboshlash va unda an'anaviy tovarlarning rolini yetarlicha baholamaganligini ta'kidlash zarur<sup>2</sup>. M.A. Babaxodjayev e'tirof qilganidek, Buxoro-Afg'oniston savdosida XX asr boshlariga kelib, Buxoro tomonidan rus tovarlari savdosi, Afg'oniston tomonidan esa ingliz-hind tovarlarining kiiirib kelishi katta rol o'ynadi, ammo shu bilan birga, an'anaviy xususiyatga ega bo'lgan tovarlar almashinuvi barqaror saqlanib qolgan<sup>3</sup>.

A.F.Gubarevich-Radobilskiy ma'lumotlariga ko'ra, XX asr boshlarida Afg'onistondan Buxoroga chorva mollari, past sifatli qorako'l teri, indigo, doka va Hindistonda ishlab chiqarilgan boshqa bir qator tovarlar tranzit savdosi orqali olib kelingan, Buxorodan Afg'onistonga asosan rus mahsulotlari, shuningdek, Buxoro paxtasi, ipak va boshqa tovarlar olib ketilgan<sup>4</sup>.

A.F.Gubarevich-Radobilskiy, boshqa mualliflardan farqli o'laroq, Buxoroning siyosiy ahvolini o'zgartirishga qat'iy takliflar berishda ehtiyotkorlik qilgan, shu bilan birga aksariyat rus tadqiqotchilari singari amirlik hayotiga faol iqtisodiy aralashuv siyosatini himoya qilgan. Shu munosabat bilan u xonlikning tashqi savdosini to'laligicha Rossiya ma'muriyati nazoratiga topshirishni maqsadga muvofiq deb hisoblagan.

Shu davrda Buxoro voqeligini tanqidiy yoritgan bir qator maqolalar paydo bo'ladi. Ularning ba'zilarida xonlikning osiyolik qo'shnilari bilan savdo aloqalariga ham to'xtalib o'tilgan. Chunonchi, "Buxoro - Rossiya bozori" maqolasida 1910-yilga kelib, Buxoro hududlariga ingliz manufaktura mahsulotlarini olib kirishning ta'qiqlanishi, rus bojxona xizmatining tashkil etilishi, Rossiyaning Afg'oniston bilan rus savdosiga homiylik qilishi amirlikning tashqi savdosi ustidan rus nazoratining o'rnatilishiga olib kelgani ma'qullangan<sup>5</sup>. Ushbu maqola muallifining fikricha, Buxoro endi birinchi navbatda Rossiyaning qaram savdo sherigiga aylandi. Shu bilan

<sup>1</sup> А.Ф.Губаревич-Радобыльский. Чай и чайная монополия. Опыт исследования основ обложения чая в России. – СПб., 1908.

<sup>2</sup> А.Ф.Губаревич-Радобыльский. Значение Туркестана в торговле России с сопредельными странами Азии. — СПб., 1912. – Вып. II. – С. 101.

<sup>3</sup> Бабаходжаев М.А. Русско-афганские торгово-экономические связи. – Ташкент. «Наука», 1965.

<sup>4</sup> А.Ф.Губаревич-Радобыльскийning bu ma'lumotlari Bolshakov maqolalarida tasdiqlanadi. Торговое и таможенное дело в Средней Азии // «Туркестанские ведомости», 1913. №№ 2-8; Afg'oniston bilan savdo haqida qarang // «Туркестанские ведомости», 1913. «» 36,39, 41.

<sup>5</sup> Тимофейч. Бухара – рынок России. // «Туркестанские ведомости». 1910. №№ 236, 238.

birga, ushbu maqolada, D.N.Logofet asarida eslatilganligi kabi, Buxoro bojxona xizmatini tugatish<sup>1</sup> va xonlikka hind mahsulotlari - choy, doka, indigo keltirishda davom etayotgan mahsulotlarga oshirilgan bojlar joriy etish zarurligi ta'kidlangan.

Rus mualliflarining bir qator maqolalari aynan shu muammoga – xonlikka qo'shni Sharq mamlakatlaridan keladigan va hali bojxona solig'iga tortilmagan tovarlarga boj joriy etish zarurligiga bag'ishlangan edi. Masalan, Afg'onistondan Buxoroga chorva mollarini olib kirish muammolari maqola mualliflarining diqqat markazida bo'ldi. Shu munosabat bilan ko'plab rus mualliflari xonlikka olib kelinadigan afg'on chorva mollariga yuqori soliq joriy etishni talab qilib, bu bojni Buxoro-Afg'oniston chegarasidagi rus bojxona xizmati olishi va shu bilan podsho xazinasi daromadlarini oshirish kerak, deb hisoblashgan<sup>2</sup>.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, XX asr boshlarida Buxoro amirligining Afg'oniston, Hindiston va Eron bilan aloqalarida Zakaspiy temir yo'lining qurilishi bilan vaziyat biroz o'zgargan. Endi hind tovarlari Buxoroga faqat Afg'oniston orqaligina emas, balki asosan Eron orqali kirib kela boshlagan. Buxoro amirligi Rossiya chegara chizig'iga kiritilgandan keyin chegaralarda Rossiya bojxona idoralari tashkil etilgan va amirlikka olib kelinayotgan va u yerdan olib ketilayotgan tovarlar rus bojxonalarini orqali o'tishi yo'lga qo'yilgan. Ammo, D.N.Logofetning ma'lumotlariga ko'ra, bir vaqtda Buxoro bojxona tizimi ham faoliyat olib borganligi uchun tashvishlanib uni tugatish taklifi bilan chiqqan. A.F.Gubarevich-Radobilskiy D.N.Logofet kabi qat'iy takliflar kiritmagan bo'lsada, iqtisodiy ma'lumotlari bojxona ro'yxatlari asosida berilganligi bilan qimmatlidir. Shu bilan birgalikda Buxoro amirligining qo'shni davlatlar bilan savdo aloqalarini tahlil qilishda fanlararo bog'lik nuqtay nazaridan yondoshildi, ya'ni, tarixiy jarayonlarni siyosatshunoslik, matematika, iqtisodiyot fanlari bilan uzviylikda ko'rib chiqildi, bu yondoshuv esa mavzuni aniq tasavvur qilishga, o'sha davr iqtisodiy va siyosiy tizimini aniqlashga xizmat qiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Арапов Д.Ю. Арапов Д.Ю. Бухарское ханство в русской востоковедческой историографии. – М.: Изд-во МГУ, 1981.
2. Бабаходжаев М.А. Русско-афганские торгово-экономические связи. – Ташкент. «Наука», 1965.

<sup>1</sup> Б.Л. «В Бухаре» // «Туркестанские ведомости». 1911. № 48. // «Туркестанские ведомости». 1911. № 48.

<sup>2</sup> Обложение особым налогом скота, пригоняемого в Туркестан из Афганистана // «Туркестанские ведомости». 1911. № 232; Иванович С. По поводу обложения пошлиной скота, следующего из Афганистана в пределы Бухары и России // «Туркестанские ведомости». 1911. № 233; Русская торговля в Бухаре и Афганистане // «Туркестанские ведомости». 1911. № 243.

3. Большаков. Торговое и таможенное дело в Средней Азии // «Туркестанские ведомости», 1913. №№ 2-8.
4. Б.Л. В Бухаре // «Туркестанские ведомости». 1911. № 48.
5. Губаревич-Радобыльский А.Ф. Экономический очерк Бухары и Туниса. Опыт сравнительного исследования двух систем протектората. – СПб., 1905.
6. Губаревич-Радобыльский А.Ф. Чай и чайная монополия. Опыт исследования основ обложения чая в России. – СПб., 1908.
7. Губаревич-Радобыльский А.Ф. Значение Туркестана в торговле России с сопредельными странами Азии. // Материалы для изучения хлопководства. Вып. II. – СПб., 1912.
8. Иванович С. По поводу обложения пошлиной скота, следующего из Афганистана в пределы Бухары и России // «Туркестанские ведомости». 1911. № 233.
9. Калиниченко А.Л. Государственный деятель с широким и верным взглядом на русские интересы // Военно-исторический журнал. № 9. 2021. – С. 104–115.
10. Логофет Д.Н. Страна безправия. Бухарское ханство и его современное состояние. – СПб., 1909. – 239 с.
11. Логофет Д.Н. На границах Средней Азии. Путевые очерки в 3-х книгах. Кн.: I. – СПб., Персидская граница. – СПб., 1909.– 208 с.; Кн. II, Русско-Афганская граница. – СПб., 1909. – 208 с.; Кн.: III. – СПб., 1909. Бухарско-афганская граница. – СПб., 1909.– 208 с.
12. Логофет Д.Н. Бухарское ханство под русским протекторатом. Т. I-II. Т. I. – СПб, 1911. – 340 с.; Т. II. – СПб., – 357 с.
13. Логофет Д.Н. В горах и равнинах Бухары (Очерки Средней Азии) – СПб, 1913.
14. Логофет Д.Н. Завоевание Средней Азии // История русской армии и флота. – М., 1913.
15. Обложение особым налогом скота, пригоняемого в Туркестан из Афганистана // «Туркестанские ведомости». 1911. № 232.
16. Зокиров, Б. (2021). Этнотопонимы, связанные с Хивинским ханством в зарубежных травелогах (на примере источников XIX века). Восточный факел, 2(2), 99–107. извлечено от <https://inlibrary.uz/index.php/eastern-torch/article/view/15142>
17. Расул-Заде П.Н. Из истории среднеазиатско-индийских связей во второй половине XIX – начала XX века. – Ташкент. «Фан», 1968.
18. Русская торговля в Бухаре и Афганистане // «Туркестанские ведомости». 1911. № 243.
19. Тимофеич. Бухара – рынок России. // «Туркестанские ведомости». 1910. №№ 236, 238.
20. «Туркестанские ведомости», 1913. «» 36,39, 41.

## CONTENTS

PREFACE.....	3
--------------	---

### SESSION №1

#### THEORETICAL AND PRACTICAL ISSUES OF INTERDISCIPLINARY APPROACHES IN HISTORICAL RESEARCH

<i>Iskhakov M.</i> Social anthropology, its interdisciplinary scientific and educational features.....	5
<i>Doniyorov A.</i> Historical roots of interethnic harmony and tolerance in Uzbekistan.....	11
<i>Khaydarov I.</i> The industry of Uzbekistan during the “perestroika” policy (1985–1990).....	20
<i>Khaydarov I., Ruzikulova Z.</i> The economic crisis of the Timurid empire and its social consequences.....	28
<i>Rasulova N.</i> Views on the formation of political parties and their theoretical-conceptual foundations.....	38
<i>Alimova R.</i> The significance of interdisciplinary approaches in studying the history of foreign trade relations of the Bukhara emirate in the early 20th century.....	49
<i>Madraimov A.</i> Shahrukh Mirza and the sending of the kiswah for the Kaaba: religious, political, and cultural significance.....	57
<i>Madraimov A., Eshmurodov B.</i> Strict discipline and personnel policy in the army of Amir Temur.....	62
<i>Askarov M.</i> The level of study of the topic of modern uzbek identity.....	74
<i>Zokirov B.</i> On interdisciplinary approaches to the study of ethnotoponyms.....	81
<i>Pardayev M.</i> Archaeological research conducted in the Sokh basin.....	89
<i>Sharifiy N.</i> A glance at the history of the spiritual administration of muslims of Central Asia and Kazakhstan.....	103
<i>Gaziyeva G.</i> Relations between Uzbekistan and Saudi Arabia in the context of interdisciplinary research and trans-civilizational cooperation.....	110

### SESSION №2

#### GLOBAL HISTORY: THE INTERCONNECTED DEVELOPMENT OF EASTERN REGIONS

<i>Madraimov A.</i> Historical realities and philosophical ideals in the era of the Timurids and Boburids: interdisciplinary dialogues.....	119
<i>Abdullayev N., Abdimanapova F.</i> Political instability in Turkey between 1970 and 1980 and its consequences.....	125